

"AVO platinum" kredit kartasi dasturi pasporti
(Kreditni taqdim etish, undan foydalanish va qaytarish shartlari haqida ma'lumot)

1. Bank haqida ma'lumot va uning aloqa ma'lumotlari		
1.1.	Bank nomi:	"AVO bank" aksiyadorlik jamiyati
1.2.	Bankning bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun litsenziya raqami операций	2025-yil 28-fevraldagi 83-son
1.3.	Bankning doimiy faoliyat ko'rsatuvchi ijroiya organi joylashgan manzil	100013, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Nukus ko'chasi, 29A-uy
1.4.	Bank bilan bog'lanish uchun aloqa telefoni Банком	+998 (78) 888-78-87
1.5.	Bankning "Internet" axborot-telekommunikatsiya tarmog'idagi rasmiy veb-sayti телекоммуникационной сети «Интернет»	www.avoz.uz
1.6.	Bankning elektron pochta manzili	info@avoz.uz
2. Kreditlashning asosiy ko'rsatkichlari va shartlari		
2.1.	Kredit turi	Qayta tiklanadigan kredit liniyasi, Mikroqarz.
2.2.	Kredit mahsuloti nomi	AVO platinum kredit kartasi.
2.3.	Kuchga kirish sanasi	20.02.2024 y. "AVO bank" aksiyadorlik jamiyati Boshqaruvi majlisining 07/24-sonli bayonnomasi asosida.
2.4.	Kreditlash turi	Qayta tiklanadigan kredit liniyasi. Maqsadsiz.
2.5.	Kredit beriladigan valyuta	O'zbek so'mi.
2.6.	Kreditdan foydalanish muddati	Dastlabki Kredit limiti o'rnatilgan sanadan boshlab 60 oy, shu jumladan: - birinchi 48 oy revolver (qayta tiklanadigan) Kredit limiti; - oxirgi 12 oyda Kredit limitini takroran ishlatish imkoniyatisiz.
2.7.	Majburiy to'lov	Majburiy to'lov quyidagilardan iborat: 1) Dastlabki Kredit limiti o'rnatilgan sanadan boshlab birinchi 48 oy davomida: <ul style="list-style-type: none">• Kredit shartnomasi shartlariga muvofiq asosiy qarz summasining 4 foizi va joriy xarajatlar davri uchun hisoblangan foizlardan iborat eng kam oylik to'lov. Bunda eng kam oylik to'lov miqdori 10 000 so'mdan kam bo'lmasligi va Kredit bo'yicha qarzdorlik summasidan oshmasligi lozim;• Kredit shartnomasi shartlariga muvofiq boshqa to'lovlar. 2) Birlamchi Kredit limiti belgilangan sanadan boshlab oxirgi 12 oy ichida: <ul style="list-style-type: none">• Kredit bo'yicha qarzdorlik summasining 1/12 qismi va joriy davr xarajatlari uchun hisoblangan foizlardan iborat minimal oylik to'lov, biroq Kredit bo'yicha umumiy qarzdorlik summasidan oshmasligi shart;• Kredit shartnomasi shartlariga muvofiq boshqa to'lovlar.
2.8.	Qarz oluvchi tomonidan rasmiylashtirilgan Kredit olish uchun arizani ko'rib chiqish va Bank tomonidan ushbu ariza bo'yicha qaror qabul qilish muddatlari,	30 kalendar kungacha.

	shu jumladan Qarz oluvchining kreditga layoqatliligini baholash uchun	
2.9.	Kreditning minimal miqdori	Belgilanmagan.
2.10.	Kreditning maksimal miqdori	Mijozning to'lov qobiliyatiga qarab aniqlanadi, ammo 100 000 000 so'mdan oshmasligi kerak.
2.11.	Ta'minot turi (garov)	Mavjud emas.
2.12.	Foiz stavkasi	Kreditdan foydalanish davrida yillik 27,9% - 74,9% (Kredit skoringi natijalari asosida aniqlanadi) Uning shartlari bajarilgan taqdirda Imtiyozli operatsiyalar bo'yicha foizsiz davrda yillik 0%.
2.13.	Kreditlashning umumiy shartlarining 2.19-bandida nazarda tutilgan holatda Kredit bo'yicha asosiy qarzning kunlik qoldig'iga qo'llaniladigan oshirilgan foiz stavkasi	kuniga 0,25%
2.14.	Kreditlashning foizsiz davri	Imtiyozli operatsiyalar bo'yicha qarzдорlik to'langan taqdirda, ushbu operatsiyalar uchun foizlar hisoblanmaydigan davr quyidagicha: Kreditlashning foizsiz davri 46 kalendar kungacha, shu jumladan: Xarajatlarning imtiyozli davri - 31 kalendar kungacha, To'lov davri - qolgan 15 kalendar kun (Ko'chirma sanasidan boshlab), dam olish kunlari hisobga olinmagan holda.
2.15.	Kreditdan foydalanlik uchun foizlar hisoblanishi boshlanadigan sana yoki uni aniqlash tartibi	Foizlar qarz summasiga foizsiz davr tugagan sanadan boshlab to'lovni to'lash sanasigacha (shu kuni ham) hisoblanadi.
2.16.	Qarz oluvchining kredit shartnomasi bo'yicha boshqa to'lovlari turlari va summalari	Mavjud emas.
2.17.	Talablar Bank tomonidan belgilangan va Kredit berish uchun Qarz oluvchi bajarishi shart bo'lgan talablar	Qarz oluvchilarning barcha toifalari uchun umumiy talablar: 2.14.1. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lishi; 2.14.2. Ariza topshirish paytida 18 yoshdan katta bo'lishi; 2.14.3. O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy ro'yxatdan o'tgan bo'lishi. Bank Kredit berishni rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.
2.18.	Arizani ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan hujjatlar ro'yxati ariza.	Rasmiylashtirish uchun shaxsni tasdiqlovchi hujjat va/yoki JSHSHIR talab qilinadi.
2.18.	Kredit berish usullari	Kredit Karta bo'yicha xarajatlar limitini oshirish orqali taqdim etiladi.
2.19.	Qo'shimcha ma'lumot	Bank Bosh shartnoma shartlariga muvofiq Kredit limitini oshirish yoki kamaytirish huquqiga ega.
3. Kreditlashning umumiy parametrlari		
3.1.	Qarz oluvchining kredit qaytarishi, foizlar va boshqa to'lovlarni to'lash davriyligi	Har oyda (Kredit limitidan foydalanilgan taqdirda). Agar navbatdagi to'lov sanasi dam olish kuniga to'g'ri kelsa, to'lov sanasi keyingi birinchi ish kuniga ko'chiriladi.
3.2.	Kredit kartasi bo'yicha qarzni to'lash muddati	Qarz haqidagi ma'lumot karta shartnomasi tuzilgandan 30 kun o'tgach tayyorlanadigan ko'chirmada mavjud bo'ladi. Ko'chirma har oyda, dam olish kunlaridan qat'i nazar, shartnoma tuzilgan sanaga mos keluvchi kunda avtomatik tarzda shakllantiriladi. Majburiy to'lov va to'liq qoplash summalari mobil ilovada ko'rsatiladi.

3.3.	Qarz oluvchi tomonidan kreditni qaytarish va foizlarni to'lash usullari	3.3.1. AVO mobil ilovasi yoki bankomati orqali. 3.3.2. Bunday imkoniyatni taqdim etuvchi boshqa banklar va to'lov tashkilotlarining mobil ilovalari orqali. 3.3.3. Bank bankomatlarida hamda bunday xizmatni ko'rsatuvchi boshqa banklar va to'lov tashkilotlarining bankomatlari va to'lov terminallarida naqd pul orqali.
3.4.	Muddatidan oldin to'lash	Qarzni to'liq yoki qisman muddatidan oldin to'lash: kredit berilgan kundan keyingi istalgan kunda, Bankni oldindan xabardor qilmasdan amalga oshirilishi mumkin.
3.5.	Kredit berish bo'yicha majburiyatlarni bajarish usullari выдаче Кредита	Mavjud emas.
3.6.	Kredit kartasi shartnomasi shartlarini lozim darajada bajarmaganligi uchun Qarz oluvchining javobgarligi, neustoyka (jarima, penya) miqdori yoki ularni belgilash tartibi	Kreditni o'z vaqtida qaytarmaganlik va (yoki) Kreditdan foydalanganlik uchun foizlarni to'lamaganlik uchun Bank Qarz oluvchidan jarima (penya) to'lashni talab qilishga haqli. Kredit bo'yicha qarzdorlik uchun: muddati o'tgan minimal oylik to'lov summasidan kuniga 1%.
3.7.	Qarz oluvchi Kredit limitini taqdim etishdan voz kechish huquqiga ega bo'lgan muddatlar	Qarz oluvchi quyidagi hollarda hisob bo'yicha Kredit limitini o'rnatishdan voz kechishga haqli: 3.7.1. Kredit limitini qabul qilmaslik orqali. 3.7.2. Kredit limiti bo'yicha xarajatlar mavjud bo'lmagan taqdirda, Kredit limiti qabul qilingan paytdan boshlab 48 (qirq sakkiz) soat ichida.
3.8.	Qarz oluvchi Kredit shartnomasi bilan bog'liq holda tuzishi shart bo'lgan boshqa shartnomalar va (yoki) olishi shart bo'lgan boshqa xizmatlar haqidagi ma'lumot, shuningdek Qarz oluvchining bunday shartnomalarni tuzish va (yoki) bunday xizmatlarni olishga rozilik berish yoxud ulardan voz kechish imkoniyati haqidagi ma'lumot	Shartnomani tuzish va bajarish maqsadida Tomonlar o'rtasida Bank hisobvarag'i shartnomasi tuziladi. Hisobvara q ochish va yuritish bo'yicha Bank xizmatlari Bankning amaldagi Tariflariga muvofiq amalga oshiriladi.
3.9.	Qo'shimcha	O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari, Milliy to'lov kartalari tizimi qoidalari va tavsiyalariga muvofiq, Bank Kredit kartasini chiqarish va unga xizmat ko'rsatishning umumiy shartlari hamda Tariflarni bir tomonlama o'zgartirishga haqli, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno. Kredit karta chiqarish va xizmat ko'rsatishning umumiy shartlari hamda tariflaridagi o'zgarishlar to'g'risida Qarz oluvchini xabardor qilish Bank tomonidan o'zining Internet veb-saytida (www.avo.uz) joylashtirish orqali, shuningdek AVO platinum kredit kartasini chiqarish va unga xizmat ko'rsatishning individual shartlarida ko'rsatilgan boshqa usullar bilan (Bank tanloviga ko'ra) yangi Shartnoma va Tariflar kuchga kirishidan kamida 10 (o'n) ish kuni oldin amalga oshiriladi.

* "AVO platinum kredit kartasi" kreditlash dasturi pasportida bosh harf bilan yozilgan atamalar va ta'riflar "AVO bank" AJda jismoniy shaxslarga kompleks bank xizmati ko'rsatish bo'yicha Bosh shartnomadagi kabi ma'noni anglatadi.